



PRIORITY OF CAESAREAN SECTION IN WOMEN WITH UTERUS SCARS

Zakirova Nodira Islamovna

Professor

Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Zakirova Fatima Islamovna

Associate professor

Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Abdullayeva Nigora Erkinovna

Master

Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11367799>

ARTICLE INFO

Received: 21th May 2024

Accepted: 27th May 2024

Online: 28th May 2024

KEYWORDS

Cesarean section, abdominal operative method, postoperative complications, reasonable preparation of women for childbirth.

ABSTRACT

Cesarean section is an obstetrical operation performed with a laparotomy and separation of the pregnant uterine wall, removal of the fetus, and subsequent restoration of the integrity of the uterus. The purpose of the study: to study the indications for Cesarean section, the results of the birth for the pregnant woman and the fetus, according to the SamSMU clinic. Research materials: we analyzed the labor and delivery history of 98 pregnant women who gave birth through the abdominal cavity in the multidisciplinary clinic of SamSMU in 2024.

BACHADONDA CHANDIQ BO'LGAN AYOLLARDA KESAR KESISH OPERATSIYASINI O'TQAZISH USTUVORLIGI

Zakirova Nodira Islamovna

Professor. Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Zakirova Fotima Islamovna

Dotsent. Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Abdullayeva Nigora Erkinovna

Magistr. Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11367799>

ARTICLE INFO

Received: 21th May 2024

Accepted: 27th May 2024

Online: 28th May 2024

KEYWORDS

Kesar kesish, abdominal operativ usul, operatsiyadan keyingi davrdagi asoratlari, ayollarni tug'ruqqa oqilona tayyorlash.

ABSTRACT

Kesar kesish bu laparotom va homilador bachadon devorini ajratish, homilani olish va keyinchalik bachadonning yaxlitligini tiklash orqali o'tqaziladigan akusherlik operatsiyasi. Tadqiqotning maqsadi: SamDTU klinikasi ma'lumotlariga ko'ra, Kesar kesish uchun ko'rsatmalar, homilador ayol va homila uchun tug'ilish natijalarini o'rganish. Tadqiqot materiallari: biz 2024 yilda SamDTU ko'p tarmoqli klinikasida qorin bo'shlig'i orqali tug'ilgan 98 homilador ayol, tug'ruq va tug'ruq tarixini tahlil qildik.



Tadqiqotning dolzarbligi. Kesar kesish bu - qorin bo'shlig'i operatsiyasi bo'lib, qorin mushaklari va bachadonni kesish bilan bog'liq bo'lgan tug'ruqni olib borish usuli.

Kesar kesish operatsiyasi ba'zi bir sabablarga ko'ra amalga oshiriladi. Homila tomonidan shoshilinch ko'rsatma (homiladorlik vaqtida rejalashtirilgan va favqulotda-shoshilinch toifalarga bo'linadi).

Ilgarilari Kesar kesish ona uchun operatsiyasiyaning yaqin va uzoq oqibatlariga qarab amalga oshirilgan bo'lsa, hozirda bola uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy akusherlikda Kesar kesish sog'lom va tirik bolani olish uchun o'tqazish, muhim ko'rsatmalardan biridir.

Ayrim hollarda vaginal tug'ruqqa nisbatan Kesar kesish operatsiyasi asoratlari yengilroq. Shu bilan birga, tajriba shuni ko'rsatadiki Kesar kesish homilador ayol va bola sog'lig'i uchun ma'lum bir xavf tug'diradi.

Homiladorlikning borishi va ko'p tuqqan ayollarda tug'ish natijalarini qiyosiy tahlil qilish bizga qorin bo'shlig'ida tug'ilish ko'rsatkichlariga jiddiyroq munosabatda bo'lishimiz uchun turtki beradi. Bizning mintaqamizda ayollarimiz odatda bitta bola bilan cheklanib qolmaydilar, ular abdominal-operativ usuldan keyin ham, homiladorlikni boshdan kechirishni xohlashadi va ularning aksariyati Kesar kesish bilan qayta operatsiya qilinadi.

Shunday qilib, kesar kesish operatsiyasi juda keng tarqalgan bo'lib 12-13 foizni tashkil etadi. Yuqori xavf darajasi mahalliy va xorijiy mualliflarning fikriga ko'ra taxminan 30 foizga yetadi. Ushbu muammoning dolzarbligi shundan iboratki, so'ngi yillarda Kesar kesish chastotasi sezilarli darajada oshdi.

Tadqiqot maqsadi. SamDTU klinikasi ma'lumotlariga ko'ra Kesar kesish operatsiyasi uchun ko'rsatmalar, ona va homila tug'ilish natijalarini o'rganish.

Tadqiqot materiallari: SamDTU ko'p tarmoqli klinikasida abdominal yo'l, kesar kesish usuli bilan tuqqan 98 ta homilador ayol, tug'uvchi va tuqqan ayollarni tahlil qildik.

Tadqiqot natijalari. Kuzatilgan 98 ta bemorning uchdan bir qismida bachadonda chandiqlar bor edi. Ularning soni homiladorlik davrida qisqa vaqt oralig'ida bo'lgan va somatik kasalliklarga chalingan (buyrak kasalliklari va anemiya) muntazam ravishda operatsiya qilingan va kesar kesish bilan operatsiya qilishning 3-toifasiga tegishli. Bachadonda chandiqlik bo'lgan ayollar soning ko'payishi keyingi homiladorlik paytida ona va homila salomatligi uchun yuqori darajada xavf tug'diradi. Shunhasiz, bu omillar ona va homila uchun operatsiya natijasini murakkablashtiradi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, Kesar kesish bilan tug'ilgan ayollarning umumiy soning 1.2foizida operatsiyadan keyingi davrda bachadon subinvolyutsiyasi, endometrit, loxiometra ko'rinishidagi asoratlari qayd etilgan va birinchi tug'uvchilar bilan solishtirganda, bu asoratlari qayta tug'uvchilarda to'rt baravar ko'p bo'lgan, ayniqsa operatsiyasiyaning keyingi asoratlarning paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan halokatli va yallig'lanishli miometriyadagi o'zgarishlar, shuningdek, bachadondagi chandiqlar, ayollarning 24.1 foizida suvsiz vaqt oralig'i 12 soatdan oshdi va milliy protokolga muvofiq, shoshilinch operatsiya uchun ko'rsatma uchun mavjud bo'ldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, so'ngi yillarda SamDTU klinikasiga ko'ra Kesar kesish operatsiyasi bilan tug'ilish darajasi 30foizgacha ko'tarildi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, birlamchi



kesar kesish sonining ko'payishi bilan uchinchi va to'rtinchi operatsiyasiyalarning takrorlanish darajasi oshadi, uchinchi marta o'tqazilish foizi 8-10foiz oralig'ida. Bu holat homiladorlik o'rtasidagi kichik interval, ko'p tuqqan ayollarda yirik homila bo'lgan bachadondagi chandiqlarning nosozligi bilan bog'liq.

1-toifadagi shoshilinch operatsiya bilan bog'liq holda, tashxisdan 30 daqiqadan kechiktirmay amalga oshirilgan operatsiyalarni, Kesar kesish bilan tug'ilish uchun ushbu toifadagi ko'rsatmalarni ko'rib chiqish tavsiya etiladi, bu normal joylashgan platsentaning muddatdan oldin to'liq ko'chishi progressiv erta ajralishi, platsentani oldinda yotishi.

2-toifadagi shoshilinch tartibda, ayolning protokoliga muvofiq-bachadonda chandiqlar va o'smalar (bo'yin va vaginada) bachadon bo'yni deformatsiyalari, siydik yo'llarida va ichak-jinsiy svishlarida plastik jarrohliklar, OIV, TORCH, gerpes virusi homiladorlik paytida namoyon bo'ladi.

Ko'rsatkichlariga kelsak, bizning mintaqamizda bachadon chandig'i ko'rsatkichlar orasida ustunlik qiladigan va yuqorida aytib o'tilganidek, bu bachadonning nosozligi yoki chandiq bo'ylab bachadon yorilish xavfi klinikasining paydo bo'lishi sababli barcha kesar kesish bo'limlarining 1/3 qismini tashkil qiladi. Uning solishtirma ulushi bachadonida chandiq bo'lgan barcha ayollarga nisbatan 60-70foizni tashkil etdi.

Bizning fikrimizcha, nisbiy ko'rsatkichlardan birining mavjudligi, agar patologiya onaning hayotiga tahdid solmasa, qorin bo'shlig'ini abdominal operatsiya qilish asos bo'la olmaydi va bo'lishi mumkin emas. Faqat ikki yoki undan ortiq ko'rsatkichlarning kombinatsiyasi kesarcha kesish bilan operatsiya qilish huquqini beradi. Shunday qilib, klinik ma'lumotlariga ko'ra, kesar kesish operatsiyasi

Perinatal yo'qotishlarni kamaytirish maqsadida klinikada rejalashtirilgan tartibda (3-toifali) kesar kesish operatsiyasini 50%ni chandiqlar etishmovchiligi 2.7%ni, og'ir preeklampsiya 5.5%ni, makrosomiya 2.8%ni tashkil etdi.

Barcha operatsiyalar retrovezikal usulda amalga oshirildi. 3ta holat bundan mustasno-istmikokorporal kesar kesish, pastki segmentda chandiq va oldingi tug'ruqlardan keyingi davrning murakkab kechishi tufayli, unga kirish imkoni yo'qligi sababli.

Xulosa: Shunday qilib, bizning mintaqamiz sharoitida abdominal uslubda tug'ruqni olib borish taktikasini kengaytirish, ayniqsa nisbiy ko'rsatkichlar, shu jumladan homila manfaatlari haqida gap ketganda, asosli deb hisoblanishi kerak. Shu munosabat bilan, ayollarni tug'ruqqa yanada oqilona tayyorlash, akusherlik patologiyasi mavjud bo'lganda taktikani to'g'ri olib borish, Kesar kesish operatsiyasiyalarning yaqin va uzoqdagi asoratlarini hisobga olgan holda yondashish homilador ayol va yangi tug'ilgan chaqaloq uchun muvaffaqiyatli natijaga erishish uchun asos bo'ladi.

References:

1. Betran AP, Vindevoghel N, Souza JP, Gulmezoglu AM, Torloni MR. A. Systematic review of the Robson Classification for caesarean section: What works, doesn't work and how to improve it. PLoS ONE. 2014; 9 (6).
2. Abdullaeva N. Zakirova F. Telmanova J. The consequences of polyhydramnios for mother and fetus. International Journal of Medical Sciences And Clinical Research. 2023;3(4):125-128.



3. Zakirova N. Zakirova F. Abdullayeva N. Features of pregnancy management and birth outcomes in women with fetal macrosomiya with active and expectant tactics. Journal of reproductive health and uro- nephrology research. 2022; 3(4):77-79.
4. Zakirova Nodira Islamovna, Zakirova Fotima Islamovna, Abdullaeva Nigora Erkinovna, Risk factors for maternal mortality, Journal of reproductive health and uro-nephrology research 2023, vol 4, issue 3, pp 86-89
5. Zakirova N. Abdullayeva N. Women's health-national health// Tibbiyotda yangi kun// 4(54). 2023. P.569-572
6. Ye J, Zhang J, Mikolajczyk R, Torloni MR, Gülmezoglu AM, Betrán AP. Association between rates of caesarean section and maternal and neonatal mortality in the 21st century: a worldwide population-based ecological study with longitudinal data. BJOG. 2015 Aug 24.
7. Айламазян Э.К. и др. Морфофункциональная оценка нижнего сегмента матки в конце физиологической беременности и у беременных с рубцом // Журн. акушерства и женских болезней. - 2006. - Т. 55, №4. - С. 11-18.
8. Буянова С.Н., Щукина Н.А., Чечнева М.А., Мгелиашвили М.В., Титченко Ю.П., Пучкова Н.В., Барто Р.А. Современные методы диагностики несостоятельности швов или рубца на матке после кесарева сечения // Российский вестник акушера-гинеколога. – 2013. - №1. – С. 73-77.
9. Густоварова Т. А. Беременность и роды у женщин с рубцом на матке: клинико-морфологические и диагностические аспекты: автореф. дис. д-ра. мед. наук / Т. А. Густоварова. – М., 2007. – 49 с.
10. Закирова Н.И., Закирова Ф.И., Абдуллаева Н.Э.// Макросомия плода: современное состояние проблемы/ Современные подходы к стандартизации оказания медицинской помощи в акушерско-гинекологической практике/23.02.2022/ С. 144-146
11. Закирова Н.И., Закирова Ф.И., Абдуллаева Н.Э.// Women's health and modern contraceptive technology after childbirth// Вестник фундаментальной и клинической медицины— 2022, — №3 (3) —Р 82-83.
12. Орлова В.С., Калашникова И.В., Булгакова Е.В. и др. Абдоминальное родоразрешение как медико-социальная проблема современного акушерства. Журнал акушерства и женских болезней. 2013. № 4. С. 6-14.